

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha

Ma'rifat darsi-18

BAYONNOMASI

12.01.26 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Kafedra hodimlari va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari
Kun tartibi: "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni" mavzusida Kelajak soati o'tkazish.

Eshitildi: Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.

Ushbu mashg'ulot talabalarda Vatan himoyasi – har bir fuqaroning muqaddas burchi ekanligi, bu boradagi mardlik, jasorat va fidoyilik tushunchalari, harbiylarimizga hurmat va ulardan o'rnak olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Vatan himoyachilari kuni – mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, xalqimizning osoyishta hayoti uchun jonini tikkan insonlarni e'tirof etish imkoniyatidir. Bu nafaqat harbiylar uchun, balki yurt tinchligini saqlashga hissa qo'shayotgan har bir vatandosh uchun ham qadrlı bayramdir.


Butun O'zbekiston aholisi uchun Vatan himoyachilari kuni katta ahamiyatga ega. Ushbu bayram davlat erkinligi va mustaqilligining ramzidir. 1992-yil 14-yanvar kuni O'zbekiston Qurolli kuchlari shakllantirilgan kun. Shu kuni Mustaqillik maydonida tantanali marosim o'tkaziladi,




unda Respublika madhiyasi yangraydi, harbiy orkestrning tantanali sadolari ostida harbiy bo'linmalar marsh bilan o'tadi. Monument poyiga gulchambarlar qo'yiladi va Oliy Bosh qo'mondonning Vatan himoyachilariga bag'ishlangan bayram nutqi yangraydi.

Keyingi yillarda olib borayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz mamlakatimiz mustaqilligi, chegaralarimiz daxlsizligi, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta'minlashning chinakam kafolatiga aylanib bormoqda. Barcha qo'shin turlari zamonaviy qurol-yarog'


va texnika bilan ta'minlanmoqda. Harbiy xizmatchilarning jangovar va ma'naviy tayyorgarligi uzluksiz oshib bormoqda.



Keyingi yillarda Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar jarayonida qisqa muddat ichida O'zbekistonda mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga har jihatdan qodir bo'lgan zamonaviy, eng yangi qurol-yarog'lar va harbiy texnika bilan ta'minlangan mutlaqo yangi milliy armiyamiz vujudga keldi. Bugun Qurolli Kuchlar safida ayol shifokorlar, ayol ofitserlar, ayol aloqa va shtab xodimlari va hokazo ko'plab ayollar xizmat qilyapti. Chunki Vatan himoyasi ayol yoki erkaklik bilan emas, mas'uliyat bilan o'lchanadi.



Davlatimiz tomonidan muddatli harbiy xizmatni o‘tab qaytgan askarlarga ko‘pgina imtiyozlar berilgan. Jumladan, namunali xulqi, intellektual salohiyati, astoydil xizmati bilan boshqalarga o‘rnak bo‘lgan askarlarga oliy o‘quv yurtlariga kirishlari uchun tavsiyanomalar beriladi. Bunda ular oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun yig‘ilgan maksimal ballning yig‘ilgan 27 % iga imtiyozli ravishda ega bo‘ladilar. Bu esa yurtboshimiz tomonidan askarlarga ko‘rsatilayotgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rliklar samarasidir.



Vatanni himoya qilish barcha uchun muqaddas burch hisoblanadi. Bu burchni ado etishda yurtimizning himoyachilari bo‘lgan milliy armiyamiz va barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ta’minlashda olib borayotgan xizmatini munosib baholash hamda ularga zarur shart-sharoit yaratish masalalari ham davlatimiz siyosatining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi

Kafedra mudiri, t.f.d., prof.

Shamansurova E.A.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari

bo‘yicha mas’ul, ass.:

Shayxova M.I.